



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*


## TURIZMNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA ISTIQBOL PARAMETRLARINI HISOBLASH

**Karshiyev Adxam Anvarovich**  
SamISI tayanch doktoranti

Turizm sohasini rejalashtirish odatda iqtisodiyot va ijtimoiy sohasining umumiy rejasi bilan bog'liq hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish aholining turmush darajasini oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida turistik xizmatlarga bo'lgan bozor talabini o'sishini bildiradi. Turizm sohasining rivojlanishi quyidagi omillar ta'sirida yuz beradi:

- hududlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik darajasi;
- davlatning ichki va tashqi siyosati;
- tuzim ichki va tashqi bozorining konyukturasi;
- milliy va xalqaro darajada turizmni qo'llab quvvatlash darajasi;
- turizm infratuzilmasining, shu jumladan, turizm korxonalarining moddiy texnik bazasi holati;
- turizm sohasining mahalliy va xorijiy investorlar uchun jozibadorlik darajasi;
- turistik xizmatlarda narx siyosati va narxlarning shakllanishi;
- ichki va tashqi turizm nuqtai nazardan aholining demografik tarkibi;
- xavfsizlik darajasini ta'minlash holati;
- turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning bo'lishi;
- turistik xizmatlar ko'rsatishning xalqaro standartlarga mosligi va boshqalarni sanab o'tish mumkin.

Ammo yuqoridagilardan tashqari ko'zda tutilmagan omillar, masalan, tabiat hodisalari, kasallik epidemiyalari, ob havo sharoitlar va boshqalar turistik faoliyatni rejalashtirishga jiddiy ta'sir qilishi mumkin. Shunga qaramasdan, turizm sohasini rejalashtirish yoki prognozlashtirishda matematik usullar, dasturlash usullari keng ishlatiladi. Quyidagi rasmda prognozlash bosqichlari keltirilgan.



### 1-rasm. Prognozlash bosqichlari

Turizm sohasida umumiy milliy va xalqaro statistikaning yig'ishning standartlari hali shakllanmaganligi tufayli sohaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini aniq baholash juda qiyin. Bunday yahlilni amalga oshirish uchun barcha davlatlarda o'xshash yoki bir xil ko'rsatkichlar va metodologiya bo'yicha ma'lumotlar yig'ish lozim bo'ladi.

Turizm sohasini ijtimoiy iqtisodiy monitoring qilish bu sohada yuz berayotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni salbiy tendensiyalarga tekshirish orqali o'z vaqtida tegishli qarorlarni qabul qilish va sohaning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilish jarayoni deyish mumkin. Bunda baholash ko'rsatkichlari sifatida aholi turmush darajasi, bozor holati, aholining alohida xulq-atvor xususiyatlari va boshqalar hisoblanadi. Ko'rsatkichlar bo'yicha statistika odatda har bir hudud bo'yicha yig'iladi va umumlashtiriladi. Shu bilan birga, bozorni rivojlantirish hududlar kesimida, masalan, tuman, viloyat va mamlakat bo'yicha tahlil qilib chiqiladi. Rivojlanishni baholash ko'rsatkichlari yig'ilib ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi va shu tizim yordamida hududda turizmning har tomonlama rivojlanishi baholash mumkin bo'ladi. Ammo statistik ma'lumotlar har doim ham iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatni to'g'ri aks ettirmaydi, chunki ma'lumotlarni yig'ish jarayoni odatda tasodifiy tanlov usulida olib borilgani sababli aynan reprezentativ tanlanmani shakllantirish qiyinchiligi paydo bo'ladi. Rasmiy statistikada paydo bo'ladigan xatoliklarni bartaraf qilish uchun ko'p hollarda tadqiqotchilar yoki maxsus tashkilotlar tomonidan so'rovnomalar tashkil qilinadi. Bu so'rovnomalar yoki intervyularni turli tanlanmalar yordamida o'tkazish mumkin, shu orqali oldin olingan ma'lumotlar to'g'riligini ham tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ma'lumotlarni ko'proq yig'ish prognozlarni aniqroq hisob-kitob qilishga va to'g'ri xulosalar chiqarishga yordam beradi. Turizm bozorini prognoz qilish modelini shakllantirishning birinchi bosqichida talab darajasiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlab olinadi. Odatda ko'p tadqiqotlarda quyidagi omillar erkli o'zgaruvchilar sifatida qabul qilinadi:

1. Mamlakatda aholi jon boshiga daromad (shaxsiy turistik sayohatlarda, qarindoshlarni ko'rish uchun borganda turistlarning shaxsiy daromadlari olinsa, ish bilan sayohatlarda boshqa daromad ko'rsatkichlari, masalan, milliy daromad kabilar olinadi).

2. Mamlakat milliy valyutasida transport xarajatlari, ya'ni tashish chiptalari narxi, yoki yoqilg'i narxlarini kiritish mumkin.
3. Mamlakatda valyuta kursi ham turizm bozorining rivojlanishiga jiddiy ta'sir qiladi. Valyuta kursi odatda tovar va xizmatlar narxlarida aks etadi.
4. O'rinbosar tovarlarning narxlarini ham turistlarning ehtiyojlari qondirilishiga ta'sir qiladi. O'rinbosar tovar narxlarining o'sishi turistik subyektlar raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir qiladi.
5. Biror noodatiy hodisaning yuz berishi turizm talabini o'zgartirishi mumkin, shu boisdan ko'p hollarda modellarga shu hodisani tavsiflaydigan biror proxy o'zgaruvchilar kiritiladi.
6. Turistik mahsulotlarni sotilish darajasi ham turizm bozorining rivojlanish darajasini baholashda ishlatilishi mumkin. Ya'ni bu tur mahsulotni iste'molchilarga tanishtirish xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, regressiya yordamida turizm prognozlash quyidagi bosqichlarda amalga oshadi;

-prognoz qilinayotgan o'zgaruvchiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab olish va ular o'rtasidagi bog'lanishni matematik jihatdan ifodalash;

-dispersiya jadvalini baholash, modelning barqarorligini tekshirish;

-modelning prognoz natijalarini haqiqiy qiymatlar bilan solishtirish va natijalarni tushuntirish kabilarni amalga oshirish lozim.

Duayer, Forsaytlarning fikricha mahalliy iste'molchilar turizmning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>. Allaberganov va Prekolar o'z tadqiqotlarida turistlarning sayohat maqsadlari va tashriflari soni o'rtasida ijobiy korrelyatsiya borligini isbotlashgan<sup>2</sup>. Ular tadqiqot davomida 563 ta xalqaro turistdan so'rovnoma olishgan. Ammo ushbu tadqiqot faqatgina bitta vaqt momentida yuz bergan holatni ask ettiradi. Safarov va boshqalar O'zbekistonda turistik xizmatlar hajmini prognoz qilishda dinamik statistik usullardan bo'lgan ARDL va ARIMA usullarini qo'llashgan<sup>3</sup>. Bunda ushbu tadqiqotda asosiy o'zgaruvchi sifatida kiruvchi turistlar soni olingan. Witt ga ko'ra turizm prognozlashning uch xil usuli farqlanadi<sup>4</sup>, ya'ni bular: sabab-natija modellari, vaqt qatori modellari va sifat modellari hisoblanadi. Go va Lawlar ham moqdoriy prognoz modellarini uch turga ajratib ko'rsatishadi, bular: vaqt qatori modellari, ekonometrik modellar va sun'iy intellektga asoslangan modellardir. Vaqt qatorlari modellarida odatda o'tgan davrlardagi ma'lumotlarning o'zgarishi asosida kelajakdagi qiymatlar bashorat qilinadi. Vaqt qatorlari modellari amaliyotda ko'p qo'llanilsada, ularni ko'p hollarda iqtisodiy nazariya orqali tushuntirish juda qiyin hisoblanadi. Vaqt qatorlari modellari o'z navbatida oddiy(oddiy sirg'aluvchi o'rtachalar, bir yoqlama eksponensial tekislash) va murakkab(ikki yoqlama eksponensial tekislash, avtoregressiv sirg'aluvchi o'rtacha, oddiy strukturali vaqt qatorlari va boshqalar) ga bo'linadi. Peng va boshqalar o'z tadqiqotlarida ekonometrik modellardan turizm talabiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasida sabab natijaviy bog'lanishlarni aniqlashda foydalanishgan<sup>5</sup>. Boshqacha qilib aytganda ekonometrik modellar bu aslida ekstrapolyatsiya usullar emas, balki ta'sir etuvchi omillar aniqlash usullari hisobalanadi<sup>6</sup>. Oddiy

<sup>1</sup> Dwyer, L.; Forsyth, P. Assessing the Benefits and Costs of Inbound Tourism. *Ann. Tour. Res.* 1993, 20, 751–768

<sup>2</sup> Allaberganov, A.; Preko, A. Inbound international tourists' demographics and travel motives: Views from Uzbekistan. *J. Hosp. Tour. Insights* 2022, 5, 99–115.

<sup>3</sup> Safarov, B.; Al-Smadi, H.M.; Buzrukova, M.; Janzakov, B.; Iliş, A.; Grama, V.; Iliş, D.C.; Csobán Vargáné, K.; Dávid, L.D. Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability* **2022**, *14*, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>

<sup>4</sup> Witt, S.F.; Witt, C.A. Forecasting Tourism Demand: A Review of Empirical Research. *Int. J. Forecast.* 1995, 11, 447–475

<sup>5</sup> Peng, B.; Song, H.; Crouch, G.I. A Meta-Analysis of International Tourism Demand Forecasting and Implications for Practice. *Tour. Manag.* 2014, 45, 181–193.

<sup>6</sup> Haiyan, S.; Li, G. Tourism Demand Modeling and Forecasting—A Review of Recent Research. *Tour. Manag.* 2008, 29, 203–220

chiziqli regressiya, gravitatsiya modellari, vector avtoregressiya, xatoliklarni to'g'rilash modellari, kointegratsiya va avtoregressiv taqsimlangan lag modellari odatiy ekonometrik modellar turlari hisobalanadi<sup>7</sup>. 2000 yillarning boshidan boshlab turizm sohasida ham sun'iy intellect yordamida prognozlash keng qo'llanila boshlandi<sup>8</sup>. Sun'iy intellektga asoslangan modellar, masalan, sun'iy nevrall tarmoqlar, qo'llab quvvatlovchi vector mashinalari, tasodifiy vaqt qatorlari, genetik algortimlar va ekspert tizimlar an'anaviy prognozlash usullaridan ko'ra samaraliroq ekanligi ayon bo'ldi<sup>9</sup>. Sun'iy intellektga asoslangan modellarda prognoz qiymatlari aniqroq chiqsada, o'rganish jarayonida shakllangan vaznlarni nima uchun aynan shunday tanlanganligini tushuntirish katta qiyinchiliklar tug'diradi<sup>10</sup>. Shu boisdan, odatda sun'iy intellektga asoslangan modellar katta ma'lumotlar bilan klassifikatsiya yoki identifikatsiya masalalari qo'yilsa ishlatiladi. Hozirda ko'plab tadqiqotchilar prognoz qiymatlarini hisoblashda bir vaqtning o'zida turli xil prognozlash usullaridan foydalanishadi<sup>11</sup>.

Milenkovski va boshqalar o'z tadqiqotida Makedoniya Respublikasida yo'l harakati infratuzilmasining kiruvchi turizmga ta'sirini o'rganishgan<sup>12</sup>. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra atrof muhit holati va xavfsizlik kiruvchi turizmga sezilarli ta'sir qilishi aniqlangan.

---

<sup>7</sup> Goh, C.; Law, R. The methodological Progress of Tourism Demand Forecasting: A Review of related Literature. *J. Travel Tour. Mark.* 2011, 28, 296–317.

<sup>8</sup> Li, S.; Chen, T.; Wang, L.; Ming, C. Effective Tourist Volume Forecasting Supported by PCA and Improved BPNN using Baidu Index. *Tour. Manag.* 2018, 68, 116–126.

<sup>9</sup> Hong, W.C.; Dong, Y.; Chen, L.Y.; Wei, S.Y. SVR with Hybrid Chaotic Genetic Algorithms for Tourism Demand Forecasting. *Appl. Soft Comput. J.* 2011, 11, 1881–1890.

<sup>10</sup> Li, S.; Chen, T.; Wang, L.; Ming, C. Effective Tourist Volume Forecasting Supported by PCA and Improved BPNN using Baidu Index. *Tour. Manag.* 2018, 68, 116–126

<sup>11</sup> Hong, W.C.; Dong, Y.; Chen, L.Y.; Wei, S.Y. SVR with Hybrid Chaotic Genetic Algorithms for Tourism Demand Forecasting. *Appl. Soft Comput. J.* 2011, 11, 1881–1890.

<sup>12</sup> Milenkovski, A.; Gjorgievski, M.; Nakovski, D. The Impact of the Traffic Infrastructure on the Tourist Destination. *UTMS J. Econ.* 2020, 11, 43–47.